



GLOBAL INTEGRATSIVYA SHAROITIDA TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI: MUAMMO VA VAZIFALAR

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

T.C. KÜLTÜR VE TURİZM BAKANLIĞI
ATATÜRK KÜLTÜR, DİL VE TARİH YÜKSEK KURUMU
TÜRK DİL KURUMU

ANKARA HACI BAYRAM VELİ ÜNİVERSİTESİ

VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O'ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

UNIVERSITET HUZURIDAGI DAVLAT TILIDA ISH YURITISH
ASOSLARINI O'QITISH VA MALAKA OSHIRISH MARKAZI
TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI

“GLOBAL INTEGRATSIYA SHAROITIDA TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI: MUAMMO VA VAZIFALAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2024-yil 11-12-may

TOSHKENT – 2024

Annotatsiya

Maqolada til va jamiyat munosabati, shu jamiyat bag‘rida shakllanuvchi sotsiolingvistik jamiyat tushunchasi, uning ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni haqida gap boradi. An‘anaviy tilshunoslik lisoniy birliklarni faqat shakliy tomondan o‘rganishga e‘tiborni qaratdi. Bunday qarash, ayniqsa, tilga semiotik nuqtayi nazardan yondashish, belgini faqat shakldan iborat deb hisoblash natijasida yana ham kuchaydi. Lisoniy birliklarning o‘zi ifodalayotgan obyektiv borliq bilan munosabati e‘tibordan chetda qoldi. Keyinchalik tilni bunday o‘rganish bir yoqlama ekanligi, shaklni ma‘nodan uzib bo‘lmasligi ayon bo‘ldi. Natijada lisoniy birliklarning ma‘no tomoniga e‘tibor kuchaydi. Tilshunoslikda sintaktik tadqiqotlarning kuchayishi natijasida shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, lisoniy birliklarning shakl va mazmun tomondan ta‘rifi ham tilni to‘liq izohlashga imkon bermaydi. Lisoniy birliklarni kontekst, nutq vaziyati bilan bog‘lab o‘rganishgina ularning ma‘nosini to‘g‘ri tushunishga to‘liq imkoniyat yaratadi. Jahonda bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan amaliy foydali, amaliy ahamiyatli tadqiq yo‘nalishlari rivojlana bordi. XX asrning o‘rtalarida dastlab Amerika va G‘arbiy Yevropa davlatlarida, so‘ngra boshqa o‘lkalarda rivojlangan va rivojlanayotgan sotsiolingvistika ana shunday fanlardan biridir. Sotsiolingvistikaning tadqiq manbayi nutq jarayoni va uning birliklaridir. Shu bilan sotsiolingvistika tilshunoslikning barcha maktab va oqimlaridan tubdan farq qiladi. Sotsiolingvistika ma‘lum bir sharoitda ma‘lum bir axborotni nutq birliklari vositasida tinglovchiga yetkazish, bu nutq parchasida so‘zlovchi belgi-xususiyatlarining in‘ikosi, uning tinglovchiga ta‘siri masalalarini o‘rganadi va o‘rgatadi.

Tayanch so‘zlar: *sotsiolingvistika, so‘zlovchi, sotsiolingvistik jamiyat, ijtimoiy tabaqa, nutq jarayoni, tinglovchi, nutq sharoiti.*

SOCIOLINGUISTIC SOCIETY IS THE BASIS OF UZBEKAN CULTURE**Abstract**

The article talks about the relationship between language and society, the concept of sociolinguistic society formed in this society, and its place in social relations. Traditional linguistics paid attention to the study of linguistic units only from the form side. This view is especially strengthened by the semiotic approach to language, which considers the sign to consist only of form. The relationship between linguistic units and the objective entity they represent has been neglected. Later, it became clear that such a study of the language is one-sided, that the form cannot be separated from the meaning. As a result, attention to the meaning of linguistic units increased. As a result of increased syntactic research in linguistics, it became clear that the definition of linguistic units in terms of form and content does not allow a complete explanation of the language. Only the study of linguistic units in connection with the context and speech situation provides a full opportunity to correctly understand their meaning.

* filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Buxoro viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari.

With the development of the market economy in the world, practically significant research directions were developing. As a result, attention to the meaning of linguistic units increased. As a result of increased syntactic research in linguistics, it became clear that the definition of linguistic units in terms of form and content does not allow a complete explanation of the language. Only the study of linguistic units in connection with the context and speech situation provides a full opportunity to correctly understand their meaning. With the development of the market economy in the world, practically useful and practically significant research directions were developing. Sociolinguistics, which developed and is developing in the middle of the 20th century, first in America and Western European countries, and then in other countries, is one of these sciences. The research source of sociolinguistics is the speech process and its units. Thus, sociolinguistics is fundamentally different from all schools and streams of linguistics. Sociolinguistics studies and teaches the issues of conveying certain information to the listener by means of speech units in a certain situation, the perception of the characteristics of the speaker in this speech fragment, and its impact on the listener.

Key words: *sociolinguistics, speaker, sociolinguistic society, social class, speech process, listener, speech condition.*

Til jamiyatda paydo bo'lganidan boshlab ijtimoiy xarakterga ega. Chunki til kishilar jamoasida ijtimoiy mehnat jarayonida yuzaga kelgan bo'lib, o'zaro aloqa bog'lash, fikr almashishga xizmat qiladi. Til faqat jamiyatda, odamlar o'rtasidagina mavjud bo'lgan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri jamiyat taqdiri bilan bog'langan. Jamiyat yo'q ekan, til ham bo'lmaydi. Juda katta shov-shuvga sabab bo'lgan Tarzan haqidagi "Mutlaq hukmronlik" filmi eslang. Kema halokatidan so'ng angliyalik er-xotin omon qoladilar va o'zlarini yovvoyi junglida ko'radilar. Kunlar o'tib ular farzand ko'rishadi. Bola hali chaqaloq ekan, ona kasallanib vafot etadi, ota esa maymunlar hujumidan halok bo'ladi. Chaqaloqni maymunlar o'zlari bilan olib ketadi va bola maymunlar orasida, maymunlar uyasida balog'atga etadi. Uning harakati maymuniy, yemishi maymuniy, dard-u qayg'usi maymuniy, "tili" maymuniy..., insoniy nutq va harakat unga tamoman begona bo'ladi. Hatto insonlar orasiga qaytib, to'rt-besh inglizcha so'zni o'rganganidan keyin ham bu "yot" muhitga u aslo ko'nika olmaydi, yana jungliga qochib ketadi (Mahmudov, 1998, 7-b.).

Ammo tilning vazifasi va mohiyatini uning eng muhim aloqa vositasi bo'lgan ijtimoiy hodisa ekanligi bilan cheklab qo'yish ham jo'n bo'lar edi, chunki tilning aloqa vositasi sifatidagi ijtimoiy mohiyati uning juda ko'plab vazifalaridan faqat bittasidir. Ayni paytda har bir tilda shu til egasi bo'lgan millatning sa'jjiyasi, ruhiyati aks etadi. Shuning uchun ham bolaning tili ona tilida chiqib, ona tilida kamol topgandagina uning shuurida tom ma'nodagi milliy ruh barqaror bo'ladi. Millat saodati yo'lida jon fido etgan A.Fitrat "Rahbari najot" asarida shunday yozgan edi: "Suv qaysi rangdagi bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar". Chindan ham ona tili bilan birga bolada o'zbekona milliy ruh muomala madaniyati, milliy ong, qisqasi, milliy o'zlik shakllanadi.

Kirish

Til va jamiyat orasidagi munosabatlarga sotsial tilshunoslikda jild-jild asarlar va tadqiqotlar yaratilgan, bu ishlarda tilning jamiyatga, jamiyatning tilga ta'siri masalalari atroflicha yoritilgan. Ammo sotsiolingvistik jamiyat tushunchasi shu ma'noda o'zining aniq talqinini topganicha yo'q. Sotsiolingvistikadagi jamiyat tushunchasi sotsial lingvistikadagi jamiyat tushunchasidan ancha tor. Bunda jamiyat deganda muayyan nutq sharoitida nutq jarayoni ishtirokchilari, shu nutq ishtirokchilari mansub bo'lgan ijtimoiy madaniy tabaqa hamda nutq sharoiti tushuniladi. Chunonchi, bozorda uzumfurosh bilan xaridor o'ziga xos bir jamiyatni tashkil etadi. Shuningdek, dengizda ikki kema uchrashib, turli usullar bilan muloqotda bo'lar ekan, bu ham bir jamiyat sanaladi. Shubhasizki, yo'lovchi va taksichi, sotuvchi va xaridor, oilada ota bilan farzand va h.k. tabiatan hamda mohiyatan xilma-xil jamiyatlar bo'lib, ular orasidagi nutq mavzulari ham, so'zlashish odobi ham turli-tumandir. Shuning uchun sotsiolingvistikada nutqiy muloqot turlarini ajratish (masalan, "Bozorda", "Ko'chada", "Poyezdda", "Shaharlararo so'zlashuv shaxobchasida", "Teatrda", "O'yingohda" kabi mavzular), har bir jamiyat uchun nutq shtamplarini belgilash, leksikasini faollik darajasiga muvofiq ravishda bera borishga alohida e'tibor qaratiladi. Zamonaviy va bugun ko'plab nashr qilinayotgan so'zlashgichlar buning yorqin dalilidir. Hozir har bir kitob do'konida o'zbeklar uchun turli xildagi inglizcha, ruscha, olmoncha, fransuzcha, hatto turkcha, koreyscha, yaponcha so'zlashgichlarni; ingliz, rus, olmon, yapon, xitoy, koreyslar uchun o'zbekcha so'zlashgichlarni ko'rish mumkin. Ular asosan topiklar va ma'lum miqdordagi so'zlar ro'yxatidan iborat. Bu so'zlar, odatda, uyalarga joylashtirib beriladi (Chunonchi, "Meva nomlari", "Aholi yashaydigan joy nomlari", "Ta'm-maza sifatleri", "Rang-tus sifatleri", "O'lchov birliklari" va h.k.). Masalan, "Ob-havo" mavzusi bo'yicha topiklarga e'tibor beraylik:

Bugun ob-havo qanday?

Bugun juda issiq

iliq

sovuq

salqin

Bugun havo yaxshi.

Yomg'ir yog'yapti.

Qor yog'yapti.

Do'l yog'yapti.

Momoqadiroq.

kuchli shamol

tuman

bo'ron, izg'irin bo'ladi.

Hozir ob-havo qanday?

Hozir 20 daraja issiq.

10 daraja sovuq.

Quyosh charaqlab turibdi.

Chaqmoq chaqyapti.

bo'ron, dovul

havo

vashin

bulut
bulutlilik
iliq havo

So'zlashgichdan foydalanuvchi shaxs shtamlarda kerakli so'zni qo'yib undan o'z ehtiyojlariga mos ravishda foydalanaveradi.

Kishi nutqiy muloqotga kirishar ekan, bu muloqot qaysi jamiyatda voqelanishini bilishi zarur. Zeroki, har bir jamiyatning nutq shtamlari, muloqot doirasi va mavzusi, leksikasi o'ziga xosdir. Bundan tashqari har bir nutqiy muloqot jamiyatining o'ziga xos argo va jargonlari bo'ladi. Nutq jarayoni ishtirokchilari ulardan xabardor bo'lmasa, me'yoriy nutq amalga oshishi mumkin emas. Sotsiolingvistikada jamiyat deganda nafaqat nutq jamiyati, balki so'zlovchi va tinglovchi mansub bo'lgan ijtimoiy-madaniy hamda kasbiy tabaqa ham tushuniladi. Zeroki, bu tabaqalarda nutq ixtisoslashadi. Buni "O'tkan kunlar" asarida Otabek va Homid nutqlarini qiyoslasak, tushunib olish qiyin emas:

Homid qo'lini bo'shatishga urinar ekan, Otabek solmoqqina qilib dedi:

– *Ortiqcha oshiqmangiz, Homidboy, men sizning xanjarli qo'lingizni bo'shataman hozir, ammo shungacha siz bilan ikki og'iz so'zim bor!*

Homid hanuz qo'lini bo'shatishga kuchar edi.

– *Kuchanmangiz, Homidboy!*

– *Mard yigit bo'lsang qo'limni qo'y!*

– *Oshiqma qo'yaman! – dedi Otabek... Xanjarli qo'li bilan tuynukka ishorat qilib, Otabek so'z boshladi.*

– *Siz mendan ham yaxshiroq bilasizki, shu uyda sizni allaqancha mashaqqatlarga solgan, cheksiz jonivorliklar ishlatgan va hisobsiz tillalar to'kdirgan, nihoyat shu daqiqaga keltirib to'xtatgan birov uxlaydir. Agarda sizning mening halol rafiqam bergan taloq xatingiz durust hisoblanmasa, bu uxlaguvchi mening halol rafiqam bo'lib, ikki yildan beri men ham uning ko'yida sargardonman. Demak, siz bilan mening oramizda shu birov uchun kurash boradir. Lekin siz shu choqqacha mening ustimdan muvaffaqiyat qozonib keldingiz: qorachoponchi, deb dor ostlarigacha olib bordingiz, Musulmonqul qo'lga topshirdingiz, bu ishlaringiz foydasiz chiqqach, ismimdan taloqnoma yozib, ikki yillab rafiqamdan ayirib turishga muvaffaq bo'ldingiz... Endi menga javob beringiz-chi: bu yomonliklaringizda siz haqlimi edingiz?*

– *Haqli edim! – dedi Homid va siltab xanjarli qo'lini bo'shatib chalqancha yiqildi (Qodiriy, 1985, 136-b.).*

Nutq parchasini o'qib tahlil qilish bizni shunday xulosaga olib keladiki, bunda har bir tabaqa namoyandasi o'ziga xos ravishda gapiradi. Otabek – izzat-hurmatli, madaniyatli, tarbiyali, har tomonlama ibrat bo'la oladigan xonadon farzandi. Buni uning nutqidan osongina ilg'ab olish mumkin. Zero, u ilk murojaat shaklida muallif va o'quvchi nafratini keltiradigan Homidni sizlaydi, vaholanki, ijtimoiy tabaqa jihatidan Otabekdan o'nlab pog'ona pastda, insoniylik xislatlariga ko'ra Otabekning tamoman aksi bo'lgan Homid unga juda qo'pol munosabatda bo'ladi. Ikkinchi murojaat shaklida ham Otabek sizlashni kanda qilmaydi. Nihoyat ikki marta ham o'z muomalasiga yarasha ijobiy javob ololmagan Otabek uchinchi murojaat raqibini senlashga majbur bo'ladi. Chunki u izzat-hurmatli, tarbiyali bo'lish bilan birga o'z qadr-qimmatini biladigan

oladigan, har qanday sharoitda ham g'ururining poymol bo'lishiga yo'l qo'ymaydigan inson. Shuning uchun ham nomardlikni do'ndirib qo'yib, yana mardlikni talab qiluvchi Homidning gapi uning izzat-nafsigaga tegadi va u muomala shaklini o'zgartirishga majbur bo'ladi. Lekin oilada olingan tarbiya yana o'zining kuchini ko'rsatadi. Otabek jahllilini jilovlagan holda yana "siz" shakli orqali raqibiga murojaatda davom etadi.

Endi Otabekning kuchli ruhiy holatidagi nutqini ko'zdan kechiraylik:

– *Zaharni kim beradi?*

Bildim, bildim! – dedi bechora Otabek. – Zaynab, Zaynab, Zaynab... Jalab! Yuboring, yuboring, darrov yuboring...

– *Ket, jalab, ket! Taloqsan, taloq!* (Qodiriy, 1985, 372–373-b.).

Bu nutq orqali Otabekning yana bir xislati ochiladi, boshiga o'g'ir kun tushgan mahalda ham unga shu kunlarni ravo ko'rgan Zaynabga bir og'iz bo'lsa-da nojo'ya gapirmaydi, u ham inson, ruhiy iskanjaga tushib o'ta azoblanganda, qo'pol so'zlar bilan ayolini haqorat qilishi, og'ziga kelgan gaplar bilan uni chilparchin qilishi mumkin edi, Zaynabni jahl ustida o'ldirib qo'yishi ham hech gap emas edi... Lekin oila ijtimoiy muhiti, undagi tarbiya Otabekni yana tizginlaydi.

Ko'pchilik kitobxonlar Otabek Zaynabni "jalab" deb so'kkan-ku, deya e'tiroz bildirishi mumkin. Din nuqtayi nazardan yondashiladigan bo'lsa, er ayolini taloq qilsa-yu, keyin pushaymon bo'lib, uni qayta xotinlikka olish niyati tug'ilsa, ma'lum bir shartlar asosida bu ijro bo'lishi mumkin. Lekin erkak ayolini "jalab" deya atasa, undan so'ng uni qaytib xotinlikka olish uchun hech qanday yo'l qolmaydi. Ya'ni "jalab" so'zi islomda xotinga taloq qo'yishning kulminatsion nuqtasi sanaladi. A.Qodiriy madrasada ta'lim olganligi uchun dinimizdagi bu jihatlarni ham chuqur bilgan. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, asarda Otabek tilidan aytilgan "jalab" so'zi haqorat bo'lmay, balki xotinga taloq qo'yishning oxirgi nuqtasi sanaladi. Ya'ni Otabek Zaynabni tamoman o'z hayotidan o'chirganligini, Zaynabning ortga qaytishiga hech qanday yo'l qoldirmaganligini bildirish maqsadida aynan shu so'zni qo'llagan.

Umuman, ijtimoiy muhit, ayniqsa, bolalikdagi ijtimoiy muhit nutqda, murojaat shakllarida o'zining aniq ta'sirini ko'rsatadi. Xalqimiz: "*Mol egasiga o'xshaydi*", "*Tana buzoqning turqi tuqqaniga tamg'a*", "*Qush uyasida ko'rganini qiladi*", "*Mushukning bolasi onasiga qarab miyovlaydi*", "*It yeganini qusar*", "*Bo'ridan bo'lgan bo'rivachcha bo'ladi*", "*Ilondan – ilon, chayondan – chayon*", deya bejiz aytmagan.

O'zbek tilining maxsus fan sifatida istisnosiz barcha oliy o'quv yurtlarida o'qitilishi va undan davlat attestatsiyasi o'tkazilishi, so'zsiz, milliy mustaqillik tufaylidir. Lekin bizda o'zbek tili xususiyatlarini odatdagi o'qitish usuli orqali mukammal o'zlashtirish qiyin, chunki ta'lim o'quv rejasida qayd etilgan o'quv soatlari asosida amalga oshiriladi. Bunda asosiy diqqat me'yoriy grammatika asoslarini yoritishga, talabalarning savodxonlik darajasini oshirishga qaratiladi. O'zbek tili imkoniyatlaridan nutq jarayonida o'rinli foydalana olish, so'zning kuchini salmoqlash, uning ta'sir darajasini anglash kabilar, odatda, e'tibordan chetda qoladi. "Bitta so'zning 360 ma'nosi bor", – deguvchi edi keksalarimiz. Bolada so'zning mana shu 360 ma'nosidan voqif bo'lish, ularning har biridan o'rinli foydalana o'lish san'atini ham o'rgatish g'oyatda muhim. Zero,

So'zdan kishining g'am-u balo hosilidur,

Har nuatada tili desa. balo doxilidur.

Besirya degan kishiga tili qo'lliklar,
Alqissaki, kimsaning balosi tildir,

deganda hazrat Navoiy so'zning mana shu jihatlari e'tiborga olgan bo'lsa qabmas.

Imom G'azoliy o'rinni qayd etganideki: "Insonga eng iloatsiz a'zo tildir. Chunki bu suyaksiz a'zoning osongina harakatga kelishi, hech bir mashaqqatsiz yugurlikni kutilmagan oqibatlarga sabab bo'ladi..." (Fazolning, 2011, 3-b.)

"Dartdaqar, bugun eng yirik davlatlar orasidagi kelishmovchiliklardan to'ntk oddiy shaxslar o'rtasida tug'ilgan nizolargacha, barchasi til ofatlari tufayli u tortshuvlarga, behayolarcha bir-birovni so'kishlarga, hatto sharmandali "zo'ravonlik"larga sabab bo'lavotganini kim inkor qila oladi? Puxta tekshirilmasdan tasdiqlangan har xil yomon gumonlar odamlar orasida xusumat va o'zaro dushmanlik kayfiyatini paydo etib, insoniyat jamiyatini bir-birovni massaxaralash, bir-birining sirlarini ochib, bebro' qilish, yolg'on, g'iybat, ig'vo, tilyog'lamaqlik, chaqinchilik kabi shaytonning qurollariga nishon qilyapti" [3].

Sotsiologiyat jamiyat deganda faqat natq jarayoni, uning ishtirokchilari tushuniladi, degan bir tomonlama xitosa ham chiqarmaslik lozim. Butun jamiyat va rivojiga ta'siri ham sotsiologiyat tadqiqotlar doirasida olib boriladi. Jamiyatda ko'p tillilik, qardosh va noqardosh tillarning bir-biriga ta'siri masalasi ham sotsiologiyatda til va jamiyat munosabatlari doirasida o'rganiladi.

Qadimiy yunon faylasufi Arastu ta'kidlaganidek, maqsad emas, balki unga yetish vositalari hal qiluvchi o'rinni egallaydi [Jo'rayeva, 2002, 58-b.].

Demak, hayotda muomala madaniyatini to'g'ri yo'lga qo'ya olish, har bir sotsiologiyat jamiyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda munosabatlarga kirishish baxti hayot, tinch turmush, tashvishsiz kun, asosiy si, qalb xotirjamligiga yo'l ochadi.

Adabiyot

Jo'rayeva S. (2002). *Haqiqat manzaralari (96 muntaz faylasuf)*. Yangi asr avlodi, www.ziyouz.com kutubxonasi.

Fazolning A.X. (2011). *Til orqatqaru*. Tojikent islom universiteti.

Kaxxorov I. (2014). *Notiklik san'atini*. Turon zamin ziy'o.

Kodiriy A. (1985). *Utgan kuylar*. Ukituvchi.

Maxmudov N. (1997). *Uzning va su'zining*. Adabiyat va san'at.

Mu'minov S. (1997). *Su'zning odobi*. Farron.

Mu'minov S. (2021). *Uzbek muloqot xitirining ishtiroki*. Farron.

Rustamov A. (2010). *Su'z xitirida su'z. EXTREMUM PRESS*.

Urinboev B., Soliev A. (1984). *Notiklik manzaralari*. Ukituvchi.

<http://en.wikipedia.org/wiki/Sotsiologiyat>.

<http://www.brooku.ca/english/courses/4F70/struct.html>.

[www.google.com](http://google.com/uz/books)

www.google.ru